

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ILK O'RTA ASR SUG'ORILISH TARMOQLARI TARIXIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Matyakubova Shahodat Xamidjanovna, Urganch Ranch texnologiya universiteti o'qituvchisi

SOME REMARKS ON THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL IRRIGATION SYSTEMS IN THE LOWER AMU DARYA REGION

Matyakubova Shahodat Khamidjanovna, Teacher of Urgench Ranch Technological University

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ ПО ИСТОРИИ РАННЕСРЕДНЕВЕКОВЫХ ИРРИГАЦИОННЫХ СИСТЕМ В НИЖНЕМ АМУДАРЬИНСКОМ РЕГИОНЕ

*Матякубова Шаходат Хамиджановна, преподаватель
Ургенчского технологического университета Ranch*



<https://orcid.org/0009-0005-0164-9607>

e-mail:
matyaqubovashaxodat@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Quyi Amudaryo hududida milodiy V-VI asr birinchi yarmida sug'orilish tarmoqlarining qurilishi va faoliyat jarayonlari tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sabirov Q., Tolstov S.P., Terenozhkin A.I., Nerazik Ye.Ye., G'ulomov Ya.G'., Sho'raxon, Sulton Uvays, Kaltaminor, Tozabog'yob, Amirobod, Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a, Dovdon, Daryoliq, Charmanyob.

Abstract: The article illuminates the history of the construction and operational processes of irrigation networks in the Lower Amu Darya region during the first half of the 5th-6th centuries AD.

Key words: Sabirov K., Tolstov S.P., Terenozhkin A.I., Nerazik E.E., Gulyamov Ya.G., Shurakhan, Sultan Uvays, Kaltaminor, Tazabagyab, Amirobod, Burgutkala, Uykala, Kumbosgankala, Dovdon, Daryalik, Charmanyab.

Аннотация: В статье освещается история строительства и функционирования ирригационных сетей в регионе Нижней Амударьи в первой половине V-VI веков нашей эры.

Ключевые слова: Сабиров К., Толстов С.П., Тереножкин А.И., Неразик Е.Е., Гулямов Я.Г., Шурахан, Султанувайс, Келтеминар, Тазабагяб, Амирабад, Бургуткаля, Уйкаля, Кумбасганкаля, Довдон, Дарёлик, Черменяб.

KIRISH. Amudaryo asrlar mobaynida suv tarkibidagi mineral moddalarni qamrab olgan loyqal'arni yotqizishi natijasida hosil bo'lgan sernam va serunum tekislik ekin-tikinga qulayligi tufayli o'z manfaatlariga xizmat qildirish maqsadida mil. Avv. VI asr so'nggi choragidan rivojlangan o'rta asrgacha ajdodlarimiz Amudaryo yo'nalishini bir maromga keltirish maqsadida Qizilqum tomon chiqarilgan Kaltaminor, Tazobog'yob va Amirobod magistral kanallari so'l sohili hududi geografik

manzarasini tasvir etgan Dovdon irmog'i o'rta qismida chiqarilgan Charmanyobdan ikki yon tomon chiqarilgan tarmoqlar boshi, o'rtasi va oxirida kichik, o'rtamiyona va miqdoriy jihatidan farqlanuvchi turar joylarni ko'targanlar. Yuqorida qayd qilingan tarixiy davrda o'troq ziroatkor aholini kundalik oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda magistral sug'orish inshootlarining tarixiy ahamiyati beqiyos. Mazkur maqolada ilk o'rta asrlarda o'troq aholi manfaatlariga xizmat qilgan sug'orilish

inshootlari yoʻnalishlari tarixini yoritish nazarda tutilgan. Aholi tomonidan turar joylarni suv bilan taʼminlash, uning mavsumiy uzilishlari, yuz bergan oʻzgarishlarni yoritish maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Amudaryo Oʻrta Osiyo janubi sharqiy hududida osmonoʻpar togʻlar oraligʻi toshlar oʻrtasidan oqib tushgan suvlarni qamrab olgan. Mil. avv. 8-7 ming yilliklarda Amudaryoning asosiy suvi Xorazm tekisligi tomon shiddat bilan kelib, tarkibidagi mineral moddalarga yotqizilishi munosabati bilan sernam va serunum tekislik ming-minglab yillar insoniyatga xizmat qilgan.

Shu maʼnoda mil. avv. 8-7 ming yillikdan boshlab Amudaryo suv sathi koʻtarilishi munosabati bilan ajralib chiqqan Oqchadaryo, Dovdon va Daryoliq irmoqlari faoliyatlari natijasida Qizilqum va Qoraqum toʻlqinsimon qum uyumlari oʻrtasidagi botiqlar suv havzalariga aylangan, ularning hukmronligi mil. avv. VI asr soʻnggi choragigacha davom etgan [1,– B.101].

S.P.Tolstov Xorazm hududida faoliyat olib borgan Shoʻraxon va Sulton Uvays oʻrtasida yuzasi gidrologik oʻzgarishlarni ilk asarida Kaltaminor, Tozabogʻyob va Amirobod sugʻorish inshootlari yoʻnalishlari belgilangan va shu asosda sugʻoriladigan dehqonchilik vohalarining suv bilan taʼminlanganligi milodiy III-IV asrlarda oʻng sohil Xorazmda sugʻorish inshootlari hududlari qisqarishi boshlanishi, milodiy VIII-IX asrlarda esa qisqarish jarayonlari keng tus olganligi qayd qilingan [2, – C. 46]. Tadqiqotchining yuqorida zikr qilingan magistral sugʻorish inshootlari yoʻnalishlari toʻgʻrisidagi xulosalariga qoʻshilib boʻlmaydi, chunki ular turli tomonga yoʻnalgan. Masalan, Kaltaminor kanali Yonboshqalʼa balandligi chegarasi boʻylab shimoli-sharqiy hududi Qumbosganqalʼagacha atroflarini suv bilan taʼmin qilgan.

Tozabogʻyob sugʻorish inshooti shimoli-sharqiy tomon Katta Qirqqiz yodgorligiga yetib borgan. Amirobod kanali esa Sulton Uvays togʻi janubiy hududlariga yetib borib Ayoqqalʼa-1,2,3 yodgorliklari aholisini obihayot bilan taʼmin qilgan. Mazkur kanallardan Amudaryo va Qizilqum oʻrtasida geografik kenglikda tub oʻzgarishlarni aks ettirgan ikki yon tomonga chiqarilgan sugʻorilish tarmoqlari toʻgʻrisida maʼlumotlar kuzatilmaydi. Shuningdek, tadqiqotchi soʻl sohili hududida Dovdon va Daryoliq irmoqlari faoliyatlari, ulardan

ikki yon tomonga yoʻnalgan sugʻorilish tarmoqlari eʼtibordan qolgan.

A.I.Terenojkinning Amudaryo oʻng sohili hududida undan chiqarilgan Kaltaminor, Tozabogʻyob va Amirobod sugʻorilish magistral inshootlari yoʻnalishlari toʻgʻri koʻrsatilgan, ular sohili boʻylab arxeologik yodgorliklarning joylashish xaritasi ishlab chiqilganligini qayd qilish joiz [3, – C.169].

Ye.Ye.Nerazikning Xorazm vohasi oʻng va soʻl sohili hududlarida olib borgan sugʻorilish inshootlari toʻgʻrisida maʼlumotlari nashrlarida keng oʻrin olgan. Tadqiqotchi ilk monografiyasida Burgutqalʼa vohasidagi yodgorliklar toʻgʻrisida maʼlumotlarni milodiy VIII asrgacha qayd qilgan.

Misol tariqasida Burgutqalʼa dehqonchilik vohasining sugʻorilishida muhim ahamiyat kasb etgan Burgutqalʼa inshooti tarixiga oid maʼlumotlar oʻrin olgan [4,–C.96]. Tadqiqotchi xulosasiga koʻra, Burgutqalʼa dehqonchilik vohasi uzunligi 40 km, kengligi 4-5 km ni egallagan. Kaltaminor magistral kanali tizimida Burgutqalʼa, Uyqalʼa va oxirida Dumanqalʼa va Qumbosganqalʼalari milodiy V-VI asr birinchi yarmida suv bilan taʼminlagan [5,– C.130].

Ikkinchi monografiyasi birinchi boʻlimida milodiy I-VII asrgacha oʻng va soʻl sohil hududida uchta magistral inshootlari hamda ulardan ikki yon tomonga chiqarilgan shaxobchalar faoliyatlari toʻgʻrisida maʼlumotlar berilgan. Ikkinchi boʻlimda faqat oʻng sohil hududidagi sugʻorilish inshootlari faoliyatlariga eʼtibor berilgan[6,–C.13-66].

Tadqiqotchi monografiyaning ikkinchi boʻlimida asosiy eʼtibor Shoʻraxon va Sulton Uvays togʻi oʻrtasidagi sugʻorilish inshootlari faoliyatiga keng urgʻu bergan, soʻl sohil sugʻorilish inshootlari, masalan Charmanyob magistral kanalidan chiqarilgan shaxobchalar faoliyatlari ochiq qolgan.

Xorazm vohasi sugʻorilish tarixi tadqiqotchisi Ya.Gʻ.Gʻulomov monografiyasida ilk oʻrta asr Amudaryo oʻng va soʻl sohili hududlarini suv bilan taʼminlagan magistral kanallar toʻgʻrisida maʼlumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, asarning “Ilk feodalizm davrida irrigatsiya (IV-IX asrlar)” boʻlimida milodiy IV asrda oʻng sohil hududida Anqaqalʼa, Qirqqiz, Jildiqqalʼada hayot toʻxtaganligi, Tuproqqalʼada tushkunlik kechganligi, Filqalʼa (Pilqalʼa) qurilishi yakun topganligi, soʻl sohil hududida rivojlanish kuzatilmaganligi, milodiy V-VI asrlarda madaniy hayot kechganligini toʻgʻri

qayd qilgan, lekin unga bo'lgan omillar to'g'risida ma'lumotlar kuzatilmaydi. Milodiy VI-IX asr oxirigacha Xorazm o'ng va so'l sohili sug'orilish inshootlari faoliyat olib borganligi xaritada o'z aksini topgan. Milodiy IV-VI asrlarda Amudaryodan o'ng va so'l sohil hududlarida Qizilqum va Qoraqum tomon sug'orilish inshootlari yo'nalishlari, ularning ikki sohili bo'ylab arxeologik yodgorliklar joylashishi tasviri berilgan. Amudaryo o'ng sohili hududida Katqal'a yaqinidan shu atamada chiqarilgan magistral kanali shimoli-sharqiy tomon hududlarini suv bilan ta'min qilgan. Shu bilan birga, Amudaryodan shimoli-sharqiy tomon (hozirgi Chimboy tumani hududi) chiqarilgan magistral kanal Kuyukqal'a atrofini suv bilan ta'min qilgan. Katta Qirqqiz qal'a sug'orilish inshootidan shimoli-g'arbiy tomon chiqarilgan shaxobcha Qizilqal'a aholisini suv bilan ta'min qilgan[7,–B.120-130].

S.P.Tolstov, Ye.Ye.Nerazik asarlarida asosiy e'tibor Sho'rxon va Sulton Uvays tog'i o'rtasida sug'orilish inshootlari to'g'risida ma'lumotlar geografiyasi keng, ammo so'l sohil Charmanyob magistral sug'orilish inshooti Dovdon irmog'idan mil. avv. VI asr so'nggi choragidan Ko'zaliqir, Qal'aliqir balandliklari tomon faoliyatlari, undan ikki yon tomon yo'naltirilgan tarmoqlar faoliyatlari ochiq qolgan. Holbuki, mazkur sug'orilish inshootlari mil. avv. IV asrdan boshlab Qoraqum chegarasi tomon va shimoli-g'arbiy Ustyurt, sharqiy tomon sug'orilish inshootlari chiqarilgan, ular sohili bo'ylab istehkomli qal'alar to'g'risida fikr-mulohazalarni qayd qilmaydi. Ya.G'.G'ulomov asarida milodiy III-VI asrlarda o'ng va so'l sohil sug'orilish inshootlari yo'nalishi qayd qilingan, ular hudud sohili bo'ylab qal'alar joylashtirilgan, ammo tarmoqlar nomlari kuzatilmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI quyidagicha izohlandi: ilmiy, tarixiy-xronologik, nazariy-qiyyosiy tavsif, munozara, asoslash, umumlashtirish, yakuniy xulosa, arxeologiya, etnografiya, geografiya fani yutuqlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Xorazm ekspeditsiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi tadqiqotchilari hamda boshqa tadqiqotchilarning ilk o'rta asrga oid adabiyotlarni qamrab olgan tarixiy ma'lumotlar tahlil qilindi.

Natijalarda quyidagi jarayonlar qayd qilindi, ya'ni antik davrda Qizilqum va Qoraqum qum uyumlari geografik holati, hamda Amudaryodan chiqarilgan sug'orilish inshootlari suv sathining goh

ko'tarilishi, goh keskin pasayishi munosabati bilan o'ng sohil hududida iqtisodiy inqirozlar sodir bo'ldi hamda suv ta'minoti qaytadan boshlanganligi sabab, suv yetib borgan qishloq va shaharlarda qisman hayot davom etgan, ularning ichki qismida milodiy V-VI asr birinchi yarmida keskin o'zgarishlar natijalari qayd qilingan.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Yuqorida qayd qilingan tarixiy davr – ya'ni milodiy V-VI asr birinchi yarmida madaniy-xo'jalik markazlar va mikrovohalarda kechgan tarixiy jarayonlar to'g'risida xulosa qilindi.

Mazkur xulosalar quyidagicha izohlandi:

Antik davrda bunyod qilingan yodgorliklarning sug'orilish inshootlari suv oqimi yetib borgan hududlarda qishloq va shaharlarda madaniy va etnik munosabatlar davom etgan.

Sug'orilish inshootlari suv oqimi yetib bormagan hududlarda xo'jalik-madaniy hayot yakun topgan.

Xorazm vohasi ilk o'rta asr siyosiy manzarasini Afrig' sulolasi va Kerdar davlatlari aks ettirgan.

TAKLIFLAR quyidagicha olg'a surildi. Ilk o'rta asr yodgorliklarining saqlanib qolgan paxsa va xom g'ishtdan (30x30x10 sm) tiklangan mudofaa devori qadimiy holatini saqlab qolish;

Ilk yodgorliklarga tomon yo'nalgan sug'orilish tarmoqlarini o'rganish;

Katta Guldursun, Qiziltepa, Qal'ajiq yodgorliklariga sayohatlar tashkil qilish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари муҳофаа иншоотлари. -Тошкент, Фан, 2009. – Б. 101.
2. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.:МГУ, 1948. – С.46.
3. Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме // СА. –М.: Наука, 1940.№6. – С. 169.
4. Неразик Е.Е. Раскопки в Беркут-калинском оазисе в 1953-1956 гг // МХЭ. – М.: Наука. 1959. Вып-1. – С. 96-124.
5. Неразик Е.Е. Сельские поселения Афригидского Хорезма (по материалам Беркут-Калинского оазиса). – М.: 1966. – С.130.
6. Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв). Из истории жилища и семьи // ТрХАЭЭ. – М.: Наука, 1976. Т. IX. – С. 13-66.
7. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, Фан, 1969. – Б. 120-130.